

**TABIYI FANLARNI O'RGANISHDA AHMAD AL-FARG'ONIYNING ILMIY
MEROSIDAN FOYDALANISH**

Xalilov Orziqul Qodirovich
Jizzax politexnika institute
«Fizika» kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo olimi Ahmad Al-Farg'oniyning tabiiy fanlar (geografiya, astronomiya, matematika va geometriya) sohasida olib borgan ilmiy meroslaridan foydalanish. Olimning Nil daryosidagi suvning sathi, hajmi va tezligini o'lchaydigan inshoot - nilomerni yaratganligi, uning ishlash prinsipini o'rganish.

Kalit so'zlar: Ahmad Al-Farg'oniy, tabiiy fanlar, geografiya, astronomiya, matematika, geometriya, nilometr.

Аннотация: В данной статье используется научное наследие среднеазиатского ученого Ахмеда Аль-Фаргани в области естественных наук (географии, астрономии, математики и геометрии). Изучение принципа создания ученым ниломера, прибора, измеряющего уровень, объем и скорость воды в реке Нил.


Ключевые слова: Ахмад Аль-Фаргани, естественные науки, география, астрономия, математика, геометрия, нилометр.

Annotation: This article uses the scientific heritage of the Central Asian scientist Ahmed Al-Fargani in the field of natural sciences (geography, astronomy, mathematics and geometry). Study of the principle of creation by a scientist of a nilometer, a device that measures the level, volume and speed of water in the Nile River.

Key words: Ahmed Al-Fargani, natural sciences, geography, astronomy, mathematics, geometry, nilometer.

“Tomirlarda buyuk bobolarining qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur”.

SH.M.Mirziyoev



Markaziy Osiyolik tabiatshunos olimlarning yaqin o'tmishda nomlari unutilayozgan buyuk ajdodlarimiz nomi va ularning jahon ilm-fani, madaniyatni xazinasiga qo'shgan ulkan xazinalarini o'rganish katta ilmiy ahamiyatga egadir» Markaziy Osiyoda qadimdan fizika, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, to'qimachilik, me'morchilik, ma'danshunoslik, kulolchilik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik keng rivojlangan. [1]

Dunyodagi qator fanlarning rivojiga katta hissa qo'shgan ulug` allomalardan biri IX asrda yashab ijod etgan hamda geografiya, astronomiya, matematika va geometriya fanlari rivojiga salmoqli hissa qo'shgan yurtdoshimiz, G'arb mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan mashhur Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad Kasir al-Farg'oniyidir.

Ahmad Farg'oniy 797-yilda Farg'onada tug'ilgan va dastlabki ilmnii shu yerda olib, voyaga yetgan. So'ng o'sha zamonda sharqda mashhur bo'lgan Bag'doddagi «Bayt al-hikma»



LORACHEVSKY
UNIVERSITY



akademiyasida ilmiy ishlar bilan shug`ullandi. Ahmad Farg`oniy ushbu ilm dargohida mashhur olim, algebra fanining otasi hisoblangan yurtdoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy bilan birga faoliyat ko`rsatish baxtiga musharraf bo`lgan. Shuningdek, Farg`oniy Misrda, Nil daryosi bo`ylarida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Mutaxassislarning fikricha, hozirgi vaqtida Ahmad Farg`oniyning 8 ta asari ma'lum, ammo Rizoulloh Ansoriyning yozishicha, uning qoldirgan asarlari soni 11 ta. Al-Farg`oniy asarlaridan «Al-Komil fil-usturlob» («Usturlob to`g`risida mukammal ma'lumot»), «Fi sanoat al-Usturlob» («Usturlob san'ati to`g`risida»), «Yetti iqlim», «Astronomiya ilmiy asoslari» va «Javomi ilm an-nujum val harakat as-samoviy» («Samoviy harakatlar va astronomiya kitobi») kabilar butun jahon astronomlari orasida ma'lum va mashhur.

Darhaqiqat, Ahmad Farg`oniyning astronomiya fani rivojiga qo`shgan hissasi beqiyos. U yo`lduzlarning orasidagi, Yerdan Quyosh, Oy va boshqa sayyoralargacha bo`lgan masofani va ushbu osmon jismlarining hajmini aniqlab, jadval tuzgan. Ushbu jadvaldan barcha astronomlar, jumladan, yevropaliklar astronomiyaning «asoschisi», deb hisoblaydigan Nikolay Kopernik ham foydalangan. Shuningdek, osmon jismlarining harakatlarini mukammal o`rgangan Ahmad Farg`oniy, Quyosh va Oy tutilish hodisalarini ham ilmiy asoslab bergen.

Ahmad Farg`oniy yo`lduzlar ilmining sultonı, deb tan olingen Mirzo Ulug`bekdan besh asr oldin Quyosh va yo`lduzlarning harakat yo`nalishini, shuningdek, Yerning shar shaklida ekanligi va u ikki qutbni birlashtiruvchi o`q atrofida harakatlanishini isbotlab bergen. Ahmad Farg`oniy bu haqda shunday yozgan: «Olimlarning masalaga qarashlari har xil bo`lishi mumkin, lekin haqiqat bitta. Mana shunday haqiqiy g`oyalardan biri - Yer va osmonning shar shaklidaligidir. Haqiqatan Yer osmondagи barcha yoritgichlar bilan birga, biri-shimolning boshida, ikkinchisi - janubning oxirida bo`lgan ikki harakatlanmaydigan qutb (orqali o`tuvchi o`q) atrofida harakat qiladi».

Ahmad Farg`oniy birinchi bo`lib ekvator doirasining Yerning ufq doirasi bilan ustma-ust tushadigan qutb doirasini, qutb tuni va qutb kuni mavjudligini hamda kun va tun tengligini ilmiy isbotlab bergen. Bu haqda u shunday yozgan: «Ammo shunday bir joy borki, unda qutb 90 darajada ko`rinadi va zenit bo`lib qoladi. Unda ekvator doirasi hamma vaqt Yerning ufq doirasi bilan ustma-ust tushadi. U holda osmonning ekvatorga nisbatan shimoliy yarmi Yer ustida abadiy ko`rinadi, janubiy yarmi esa abadiy ko`rinmaydi. Agar Quyosh saratonning boshida bo`lsa, kun 24 soat bo`lib, tun bo`lmaydi. Agar Quyosh Jadiyning boshida bo`lsa, tun 24 soat bo`lib, kun bo`lmaydi. Qutbning balandligi ekliptikaning ekvatorga og`ishiga teng bo`lgan joylarda Quyosh zenitdan bir yilda bir marta o`tadi».

Yerning shar shaklida ekanligiga asoslangan holda Axmad Farg`oniy Yer meridianining bir darajasi uzunligini aniqlashga muvaffaq bo`lgan. Oradan 800 yil o`tgach, Amerikani kashf etgan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb hamda XVI asrda Yer shari bo`ylab aylanma sayohatni amalga oshirgan Fernando Magellan Ahmad Farg`oniyning Yer shari hajmini hisoblash uchun ishlatgan bir daraja meridian uzunligi haqidagi hisob-kitoblarining naqadar to`g`ri ekanligi haqida yozib goldirishgan.

Ahmad Farg`oniy Misrda, Nil daryosi bo`ylarida qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib bordi. Izlanishlarining natijasi o`laroq olim Nil daryosidagi suvning hajmi va tezligini o`lchaydigan inshoot - nilomerni yaratgan. Aynan shu nilomerning ko`rsatkichlaridan foydalangan holda Misrda qishloq xo`jaligining asosiy tarmog`i hisoblangan dehqonchilikni samarali va oqilona tashkil etish mumkin bo`lgan.

Ahmad Farg`oniy tomonidan Nil daryosining Roda orolida yaratilgan nilomer daryo sathidan past qilib qazilgan to`rtburchak quduq bo`lib, 3 xil balandlikdagi kanallar orqali daryo bilan tutashtirilgan. Quduqning ichki qismiga tosh terilgan va pastki qismiga tosh zinalar orqali tushish mumkin. Inshootning o`rta qismiga sakkiz burchakli tosh ustun o`rnatilib, 19 tirsakqa (1 tirsak taxminan 54 sm.ga teng) bo`lingan.

Manbalardan ma'lum bo`lishicha, agar sug`orish mavsumida Nil daryosida suv sathi 12 tirsakkacha ko`tarilsa, hosil bo`lmay, mamlakatda ocharchilik kutilgan, 13 tirsakda bug`doy hosil bermagan, 14 tirsakda o`rtacha hosil yetishtirilgan, 15 tirsakda ekinlar yaxshi hosil bergen va nihoyat, 16 tirsakda esa hosil nihoyatda ko`p bo`lib, mamlakatda mul-ko`lchilik boshlangan.



LORACHEVSKY
UNIVERSITY



Ammo suvning 19 tirsakdan balandga ko`tarilishi mamlakatda toshqinlar bo`lishi, ekin maydonlari va hosilga zarar yetishidan darkar bergen.

Nilometr qanday ishlagan?

Sharq olimlari nilometrni o`z asarlarida "Miqyosi Nil" deb ham atashgan. "Miqyosi Nil" murabba, ya`ni 4 yonli quduq ko`rinishida bo`lib, Nil daryosi bilan 3ta yerosti suv yo`li orqali tutashgan. Quduq o`rtasida oq marmar bilan qoplangan, balandligi taxminan 10 metr bo`lgan sakkiz qirrali ustun o`rnatalgan. Ustunda suv sathini o`lchashga imkon beradigan yirik darajot bo`lib, u mayda darajotga bo`lingan. Yirik darajot arab tirsak birligi – 54 santimetrga, maydalari esa uning 1/24 qismi (qirot)ga – 2,25 santimetrga teng.

Kuzatuvchi suv sathi haqida hisob olish uchun aylanma zinapoyadan tushib chiqqan. Nilometr daryo suv sathini katta aniqlikda o`lchashga imkon bergan. Bugungi kunda Jahon metrologiya tashkilotiga a`zo bo`lgan barcha davlatlarda suv havzalari (daryolar, ko`llar, suv



omborlari, hatto dengiz va okeanlar)ning suv sathlari ham shu prinsipda o`lchanadi.

Nilomer Nil daryosi suvidan oqilona foydalanish, dehkonchilik va aholining iqtisodiy holatini oldindan aniqlash imkonini berardi. Misrda dehqonlarga soliq solish masalalari ham nilomer ko`rsatkichlari asosida amalga oshirilgan. Shunisi e`tiborga loyiqliki, Ahmad Farg`oni yaratgan ushbu inshoot hozirgi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotgan emas.

Misr hukumati vatandoshimiz Ahmad Farg`oni yaratgan ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom ramzi sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o`rnatalishga qaror qildi. Ushbu haykal Prezidentimiz Islom Karimovning 2007-yilda Misrga qilgan rasmiy tashrifi chog`ida tantanali ravishda ochilgan.

Ahmad Farg`oni yaratgan ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom ramzi sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o`rnatalishga qaror qildi. Ushbu haykal Prezidentimiz Islom Karimovning 2007-yilda Misrga qilgan rasmiy tashrifi chog`ida tantanali ravishda ochilgan.

Ahmad Farg`oni yaratgan ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom ramzi sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o`rnatalishga qaror qildi. Ushbu haykal Prezidentimiz Islom Karimovning 2007-yilda Misrga qilgan rasmiy tashrifi chog`ida tantanali ravishda ochilgan.

Jumladan, kremonalik Gerardo XII asrdayoq Ahmad Farg`oni yaratgan ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom ramzi sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o`rnatalishga qaror qildi. Ushbu haykal Prezidentimiz Islom Karimovning 2007-yilda Misrga qilgan rasmiy tashrifi chog`ida tantanali ravishda ochilgan.

Respublikamizda dunyo fani rivojiga o`lkan hissa qo`shgan alloma Ahmad Farg`oni yaratgan ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom ramzi sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o`rnatalishga qaror qildi. Ushbu haykal Prezidentimiz Islom Karimovning 2007-yilda Misrga qilgan rasmiy tashrifi chog`ida tantanali ravishda ochilgan.

Respublikamizda dunyo fani rivojiga o`lkan hissa qo`shgan alloma Ahmad Farg`oni yaratgan ushbu mamlakat oldidagi xizmatlariga yuksak ehtirom ramzi sifatida Nil daryosidagi Roda orolida uning haykalini o`rnatalishga qaror qildi. Ushbu haykal Prezidentimiz Islom Karimovning 2007-yilda Misrga qilgan rasmiy tashrifi chog`ida tantanali ravishda ochilgan.



Prezidentining Farmoni bilan keng nishonlandi. Shu munosabat bilan buyuk yurtdoshimizga ehtirom sifatida Farg`ona shahrida me'moriy majmua barpo etilib, uning markazida allomaning yo`lduzlar xaritasini qo`lida tutgan holda viqor bilan turgan haykali mavjud. Bu joy nafaqat farg`onaliklarning, balki Farg`ona vodiysiga tashrif buyuradigan har bir kishining ziyoratgohiga aylandi.

Ahmad Farg`niyning nomi fazoda ham abadiylashtirilgan. Mashhur polshalik astronom Yan Gaveliy o`zining 1647-yilda chop etilgan «Selenografiya» kitobida yozishicha, XVI asrdayoq Oydagi kraterlardan biri Ahmad Farg`oniy nomi bilan atalgan.

Hozirgi kunda Farg`oniyning sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Ular quyidagilardir: yuqorida zikr etilgan asar, odatda, uni "Astronomiya asoslari haqida kitob" nomi bilan ham atashadi – qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. "Asturlob yasash haqida kitob" – qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, "Asturlob bilan amal qilish xaqida kitob" – birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), "Farg`oniy jadvallari" – qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), "Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtalarini aniqlash haqida risola" – qo'lyozmasi Qohirada, "Yetti iqlimni hisoblash haqida" – qo'lyozmalari Gotada va Qohirada, "Quyosh soatini yasash haqida kitob" – qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi.[3]

Shunday qilib, buyuk ajdodimizning bu asari Yevropa Uyg'onish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi madaniyat rivojida sezilarli rol o'ynadi. Farg`oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, so'nggi G'arb va Sharq mualliflari asarlarida g'urur va iftixor bilan tilga olinadi va o'rganiladi.

O'zbekiston va Misr o'rtasida chuqur tarixiy, madaniy, intellektual rishtalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023 yil 20 fevralda Misr Respublikasiga rasmiy tashrifi va Ahmad Farg`oniy yodgorligini borib ko'rishi va "Nilometr" inshooti bilan tanishishi asrlar davomida mavjud bo'lgan ilmiy almashuvning bugungi kunda ham naqadar muhim ekanligini ifodalaydi. Tarixchilar, muzeyshunoslar, olimlar va yoshlar almashuvi bu aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ahmad Farg`oniyning hayoti haqida o'rta asrlarda Sharqda ularning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al- Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Barbrey (XIII asr) kabi Sharq olimlari uni o'z asarlarida eslatadilar.

Ahmad Farg`oniyning asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va umumiyligi ilmi nujum kitobi" ("Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum") XII asrdayoq Evropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Evropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng uning lotincha nomi "Alfraganus" shaklida G'arbda bir necha asr davomida juda mashhur bo'lib ketgan.

"Samoviy harakatlar va umumiyligi ilmi nujum kitobi" bir necha asrlar davomida Evropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik sifatida o'qitib kelingan. Ahmad Farg`oniy asarining lotincha tarjimasi bиринчи мarta 1493 yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. Ahmad Farg`oniyning "Astronomiya asoslari" nomli asari XII asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga egaligidan dalolatdir. Allomaning Er sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb "Er meridianining bir darajasi miqdori haqidagi Ahmad Farg`oniy hisoblarining to'g'riliqiga to'la ishonch hosil qildim", deya dastxat goldirgan. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan. [4]



Lobachevsky
UNIVERSITY



Evropa Uyg'onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalarni Ahmad Farg'oniy kitoblaridan o'qigan. Ahmad Farg'oniy nomini o'z asarlarida buyuk Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham qayd etgan.

Evropaning yirik sharqshunos olimlaridan Dalambr, Brokelman, X.Zuter, I.Krachkovskiy, A.Yushkevich va B.Rozenfeldlar Ahmad Farg'oniyning ijodini o'rgangan va bu olimning faoliyatiga yuqori baho berganlar.

Ahmad Farg'oniyning "Usturlob yasash haqida kitob" qo'lyozmasi Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, "Usturlob bilan amal qilish haqida kitob"ning birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), "Ahmad Farg'oniy jadvallari" qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), "Oyning Er ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola" qo'lyozmasi Gota va Qohirada, "Quyosh soatini yasash haqida kitob" qo'lyozmasi Halab va Qohirada saqlanadi. XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi.

Buyuk ajodolarimiz ilmiy va ma'nnaviy merosining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini bilish, bundan fahrlanibgina qolmay, uni rivojlantirishga hissa qo'shish bugungi yosh avlod zimmasidagi sharaflı vazifadir. Yoshlarimiz buyuk bobolariga munosib avlod bo'lishlari uchun ajodolarimiz qoldirgan ilmiy meroslarini o'rganishlari zarur.

Adabyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrdagi "Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi" 20.12. 2022 y.
2. T.Usmonov "Fizika tarixidan metodik qo'llanma" Toshkent -2003.
3. M.M.Xayrullaev "Sharq mutafakkirlari" Toshkent - 1991 yil.
4. "[Fizika fanini o'qitishda Markaziy Osiyo olimlarining ilmiy merosidan foydalanish](#)". O.K. Xalilov, B.X. Mamatqulov, G.O.Nurullaeva.



LOBACHEVSKY
UNIVERSITY

